



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **CHO'L PON SHE'RLARIDA HAJV VA DRAMA**

**Boymuratova Hulkar Mamaraim qizi**

Termiz davlat universiteti, magistrant

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jadid adabiyoti orqali o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar va xususan marifatparvarlik vakili Cho'lpon ijodida hajviy she'rlarning o'rni haqida ma'lumotlar uchraydi. Cho'lponning "Shamol nimadan paydo bo'lur", "Kim xor", "Temirchi" kabi she'rlarini tahlil qilindi. Ushbu tahlil jarayonida hermenevtik metoddan faol foylanilgan.

**Kalit so'zlar:** Jadid, nazm, she'riyat, dramaturgiya, hajviy she'r, millat, millat qayg'usi.

## **САТИРА И ДРАМА В СТИХАХ ШОЛПОНА**

**Боймуратова Хулкар Мамарайм кизи**

Термезский государственный университет, магистрант

### **Аннотация**

В данной статье представлена информация о возрождении узбекской литературы через джадскую литературу и в частности о появлении баджвийской поэзии в творчестве представителя эпохи. Просвещения Чолпона. Проанализированы стихи Чолпона такие как "shamol nimadan paydo bo'ladi". В этом анализе активно использовался герменевтический метод.

**Ключевые слова:** Джадид, стихи, поэзия, драматургия, сатирическая поэзия, нация, национальная скорбь.

## **SATIRE AND DRAMA IN CHOLPON'S POEMS**

**Boymuratova Hulkar Mamaraim qizi**

Termez State University, 2nd Year Master's Student

### **Abstract**

This article provides information about the innovatsion in uzbek literature through Jadid literature, and in particular, the role of satirical poems in the work of Cholpon, a representative in this analysis, the hermeneutic method was actively used.

**Keywords:** Jadid, poetry, dramaturgy, low-level she't, nation, national sorrow.

O'zbek adabiyoti osmoni turfa xil ijodkorlarni ko'rdi, ular ichidan yorqin yulduz bo'lib Cho'lpon ham chiqdi. Xususan, XX asr o'zbek adabiyotining yangilanish davri ijodkorlari turli sohalarda o'zini ko'rsata oldi. Adabiyotshunos olim N. Yo'ldoshev aytganidek: "XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida yangi davr boshlandi. Milliy she'riyatimizda poetik tafakkurning yangilanishida jadid shoirlari qatorida Abdulhamid Cho'lpon ijodining o'rni muhim ahamiyatga ega" [1, 162]. Dastlab Gasprinskiy tomonidan tashkil qilingan maktabdan ilhomlanib, Turkistonning turli hududlarida yurt jonkuyarlari tomonidan yangi usul maktablari ochila boshladi, ammo bu maktablarda o'qitishga hammaning ham imkoni yetmagani uchun jadid bobolarimiz matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarda xalqning dardini olib chiqishga harakat qilishdi. Biroq sho'ro hukumati bu gazeta va jurnallarning umrini uzoqqa cho'zmasdi, birin-ketin yopilgan gazetalar xalqning ma'rifat ko'zini oz bo'lsa-da ochishga ulgurdi. Ushbu harakatdan so'ng jadidlar yangicha shukuhda, ham ko'zlarda, ham quloqlarda esda qoladigan teatrni tashkil qilishdi, hatto

A. Avloniy, Behbudiy, A. Qodiriy, Cho‘lponlar tomonidan pyesalar yaratildi. Mana shunday jonkuyarlikning asoschilaridan bo‘lgan Cho‘lpon ham nasrda, ham dramaturgiyada, ham she‘riyatda, ham matbuotda qalami o‘tkir jadidlardan edi.

Cho‘lponning she‘rlari faqatgina xalq dardi va uni ma‘rifatli qilishga undagan dard bilan yozilgan she‘rlar, deyolmaymiz, yurt qayg‘usini hajviy she‘rlari orqali ham juda ta‘sirchan ifodalagan. Uning hajviy she‘rlaridan quyidagi she‘rini tahlil qilsak: “Shamolni nimadan paydo bo‘lur” [2, 2024, 16-b.] hajviy she‘ri aruz vaznidagi sakkizlik musamman she‘rga o‘xshab sakkiz misradan iborat. She‘rning dastlabki bandida shoir bir shaharning yoshlari va yurt kattalari el qayg‘usiga davo topmoq uchun majlis o‘tkizmoqchi bo‘lganini:

Bir shaharda, bir majlisga shul shaharning yoshlari,  
El boshida turatug‘on rahbarlari “bosh”lari  
Yig‘ildilar el qayg‘usin qayg‘ulashmoq o‘yida,  
Qayg‘ulashib, dardlariga davo topmoq ko‘yiga.  
Biri elning bir g‘amini aytmakchiydi majlisda,  
Yana biri davo topib bermakchiydi. Shul kechda  
Ulus uchun balki, bir zo‘r ishni boshlab yuborib  
Qolarlardi o‘zlariga shonli bir nom qozonib...

Ko‘rinib turibdiki, yurtning dardi, qayg‘usi yoshlar va yurt rahbarlari qo‘lida edi, biroq o‘sha paytda Turkistonda hukumat rahbarlari sho‘rolar edi va ularga yurtning qayg‘u-istaklarining qizig‘i yo‘q edi. Shunday bo‘lsa-da, majlisda biri elning g‘amini aytmoqchi bo‘lgani, yana biri esa o‘sha g‘amga davo topmoqchi bo‘lgani, ammo majlis bazmga aylanib ketganini keyingi bandda ko‘rishingiz mumkin:

Dasturxonga keldi har xil meva-cheva, qand, asal,  
Alichadan, klubnikdan bo‘lg‘on qiyom, xolvaytar.  
Xullas, majlisdagilar majlis o‘rniga bazmga kelgandek edilar. Shunday bo‘lsa hamki, bir

shoir turib kuyinib:

U deydi: “Birodarlar, bizda yo‘qdir hech narsa,  
Na hikoya, na-da roman, na tiyotr, na sahna”.

Bu kuyinishda chindan ham masalaning mohiyati ochib berilgan edi. Yuqorida biz maktab, matbuot, teatr kirib kelganini aytdik, ammo uning ne mashaqqatlar bilan kelgani barchamizga ayon. Yana bir bandi achchiq kulgiga olingan bir masala borki, bu hozirgi paytda ham, hozirgi zamonda ham global muammolardan biridir:

Endi navbat keldi har xil ilmiy, fanniy bahslarga,  
Uyqu keldi, qayg‘u cho‘kdi... majlisdagi yoshlarga!

Darhaqiqat, yoshlarning ilmiy salohiyati anchayin pasayganini hozirgi paytda ham ko‘rishimiz mumkin. XXI asr texnologiyalar asri deb, butun texnikalar yoshlarning qo‘lida, ammo ularning “quli”ga aylanib qolishayotgani ham sir emas. Ushbu baytlar orqali shoir, balki, ayni kelajakni ilm-fan yutuqlari bilan quradigan yoshlarning uyquga cho‘mayotganidan xabar berayotgan bo‘lsa, ajab emas.

Keyingi bandda undan ham qiziq bir pakana, bachkana, deya ta‘rif berilgan obraz paydo bo‘ladi va shoirni so‘roqqa tutadi. Deydi: “Shamol qaydan paydo bo‘ladi?” Qiziq savolning javobi ham qiziq, shoir esa shunday javob beradi: “Yer kurrimiz to‘xtamasdan aylanganidan shamol paydo bo‘ladi”. Birgina shu savoldan so‘ng boshqa savol ham, javob ham bo‘lmaydi. Qizig‘i shundaki, shoir bunday savolni bergan insonni shunday ta‘rif etadiki, shoirning o‘sha qahramonida “qasdi” borgan o‘xshaydi:

Shul vaqtda ko‘p soqollik, boshi yo‘g‘on, pakana,  
Yum-yumaloq, tishi kemshik, mayda so‘zlik, bachkana.

Cho‘lpon savolning qanchalik bachkana, epsiz ekanligini, savolni kim berayotganini ochib berish uchun savol beruvchini shunday tasvirlagan. Cho‘lpon aytmoqchi bo‘lgan fikrda dunyo olimlari qancha mushkul bo‘lgan savollarga javob qidirayotgan bir davrda, bizning

millatning johillik sari borishidan kuyungan bo‘lishi ham mumkin. Shoir oxirida:

Shundan keyin ilmiy bahslar kerak bo‘lmay qoldilar,  
Ziyolilar uyga qarab yo‘llarini oldilar...

degan jummalarda she‘rni tamomlaydi. Shoir uchun elning dardiga davo topuvchi yoshlarning holi va uyidan chiqishga qo‘rqadigan ziyolilarning ahvoli achinarli edi. Cho‘lpon xulosani o‘zingizga qoldiradi.

Shoirning 1919-yilda yozilgan yana bir she‘riga e‘tibor qaratsak, “Kim xor?” she‘rida shoir xuddi hajviy tarzda yozgan bo‘lsa-da, ammo she‘rni o‘qigan kishida dilxiralik kayfiyati paydo bo‘ladi:

Bu zamonda, birodarlar, kim juda xor,  
O‘lum kutib kecha-kunduz kim ko‘b yig‘lar?  
Burjiy xormi? Yo‘q, birodar, burjiy ko‘b tinch.  
Nega desang, Nikolayning pulidir zich!...  
Chinovnikmi? Chinovnik ham juda rohat,  
Har kun qilur “pamitnikka” ul ibodat...  
Yana rohat: samovarchi, ayronchisi,  
Kabobchisi, mevachisi, nayrangchisi,  
Izvoshchisi, sarjinchisi, o‘tinchisi,  
Hammadan xor: musulmonning “4” inchisi!...

Aslini olganda, she‘r muallif tomonidan hajviy she‘r deb tan olingan bo‘lsa ham, she‘rning ma‘no-mazmunini anglagan kitobxon millatining jonkuyari sifatida achchiq kinoya bilan yozilgan she‘r deb tahlil va talqin qiladi. Muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrga ko‘ra, xorlangan bu yerda millatimiz kishilari ekanligini, mustamlakachilarning katta ishchilari ham xor emasligini, mayda ishchilargacha: samovarchi, ayronchi, kabobchi, mevachi, nayrangchi, izvoshchi, sarjinchisi va hatto o‘tinchisini ham sanab o‘tadiki, shu orqali shoir she‘rdagi pafosni yanada kuchaytirishni maqsad qiladi. Jamiyatda aslini olganda kim xor ekanligi xususidagi bahs-munozara Cho‘lponning ichki kechinmalari bilan birga kechadi. Shuning uchun ham shoir uchun oxirgi to‘xtam — hammasidan ham xor bo‘layotgan musulmon farzandlari, deb she‘rga yakun yasaydi. Shu o‘rinda shoir aynan bir millat nomini keltirmaydi, aksincha musulmonning “4” inchisi deb qo‘ya qoladi. Har kimdagi rohat faqat biz kabi millatda yo‘q ekanidan kuyungan bo‘lishi ham mumkin. Fikrimcha, Cho‘lpon hajviy she‘r nomi ostida o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni ilgari surgan holda tuzum ustidan kuladi. Bilamizki, Cho‘lpon kabi jadid vakillarining asarlari qayta-qayta tekshiruvlardan o‘tkazilib, keyingina chop etilgan bo‘lishi ham ehtimol. Shoir shularni inobatga olgan holda she‘rlariga hajviy she‘rlar degan bo‘lishi ham mumkin. Cho‘lpon “Yangi o‘zbek she‘riyatining islohotchisi sifatida an‘anaviy obrazlarga yangicha mazmun yuklagan” [3, 2025, 163]. Bundan xulosa qilish mumkinki, shoirning yuqorida tahlil qilingan ikki she‘rida ham mazmun yangilangan, shaklda hajviylik bo‘lsa ham, she‘rning tub zamirida, tagma‘nosida millatga qayg‘urish, achinish va achchiq kinoya ustun turadi. “Kim xor?” she‘rida ham rohat kimplarda ekanligi she‘rdagi lirik qahramon tilidan berilgan savolga qarshi ravishda aytiladi. She‘r so‘ngiga kelib asl mazmun ochib beriladi.

Cho‘lponning ayrim she‘rlari borki, janr jihatdan lirikadan ko‘ra dramatik asarga ko‘proq o‘xshaydi. “Temirchi” she‘riga nazar tashlaydigan bo‘lsak, she‘rning strukturasi drama ko‘rinishida. Ushbu she‘rda ikki kishi — temirchi va uning o‘g‘li tashkil topgan. Dramaga o‘xshash tomoni yana shundaki, she‘rda manzara, ya‘ni ko‘rinishning mavjudligidir. She‘rda dramalardagi kabi sitatalarning berilishi ushbu she‘rni dramatik asar tomon tortsa-da, ammo shoir bu she‘rni dramaga kiritmaydi. Bunga sabab qilib ushbu she‘rda parda va ko‘rinishlarning bo‘lmaganligini keltirishimiz mumkin. She‘rning qisqacha mazmuni quyidagicha: temirchi va uning o‘g‘li kambag‘al oilaning yagona tebratuvchisi bo‘lib, halol mehnat bilan shug‘ullanib kelishadi. Ularning yo‘qsul bo‘lib yashashini esa o‘g‘ilning tilidan aytilgan “ota, och qoldim” jumllaridan ham bilishimiz mumkin. Biroq ular to‘xtashga haqqi yo‘q, chunki uyda “o‘n jin”

kutib turibdi. Ammo kunlarning birida o'g'il qo'lini kuydiradi, ota qo'lga bolg'a bilan ezib qo'yadi. Ana endi og'ir turmush tarzining yanada og'irlashishini ko'ring. She'rda tushkunlik kayfiyati hukmron. Cho'lpon bu emotsionallikni kitobxonga ham yuqtiradi. She'r uchun temirchi hunarining tanlanishida ham ramziy ma'no bor. Temirchilik azaldan eng mushkul va og'ir hunarlardan biri bo'lib kelgan. Cho'lpon turmushning og'ir manzaralarini tasvirlash orqali davr manzaralariga ham nazar tashlab ketishga ishora qilgan bo'lishi mumkin. Shoir o'zi ham ta'kidlab o'tadiki, "mehnatkash inqilobning ikki sana davri munosabati ila" yozilgan she'r ekanligini, chunki mazkur she'rdagi kabi inqilob ham mehnatkash xalqning hayotida hech narsani o'zgartirmadi. Cho'lpon buni anglagan holda mehnatkash xalqning ramzi sifatida temirchilik hunarini tanladi, odatda dehqonchilik mehnatkash, ezilgan xalqning timsoli bo'lib kelsa, biroq bu she'rda shoir yangi hunarni tanlagan. Cho'lpon she'rda nihoyatda tabiiy manzaralar fonida Turkiston o'lkasida ro'y berayotgan voqealarni tasvirlaydi [4, 171].

Darhaqiqat, Cho'lpon she'riyati xalq jonli tiliga yaqinlashganini va bu esa jonli tilga mos ritmik-intonatsion qurilishni, yangi she'r tizimini taqozo etadi [5, 9]. Endilikda aruz vazni orqali yaratilayotgan she'rlardan ko'ra barmoq anchayin xalq tiliga, ongi-shuuriga yaqin bo'lishini, "milliy vaznimiz"dan unumli foydalanish kerakligini uqtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, shoirning ijodiy olamida turfa xil yangiliklar va Turkiston xalqi bu yangilikka tashna bo'lib kelayotgan bir pallada o'zbek adabiyot sahnasiga Abdulhamid Cho'lponday shoirlar yetishib chiqdi. Cho'lpon yuqorida tahlil qilingan "Shamol qaydan paydo bo'ladi?", "Kim xor?" she'rlari orqali she'riyatda hajviy yo'nalishni olib kirgan. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, shoir tom ma'noda hajviy yo'nalishda yozmasa-da, biroq ushbu she'rlarda hajvning belgilari namoyon bo'lgan. Ushbu she'rlarning ritorik so'roqlanishi esa javobni hamma bilsa-da, erkin ayta olmasligidadir. Cho'lponning poetik iste'dodi zikr qilingan usullar milliy she'riyatimiz zamirida tom ma'noda tomir otishi va barq urib yashnashida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [6, 10].

Keyingi tahlilga tortgan she'rimizda esa inson ruhiy kechinmalari, hayot tashvishlari bilan qorishgan yosh avlodni uchratamiz. Temirchining o'g'li turmushni yengillatish uchun otasiga yordam beradi. Vaholanki, o'qish va ilm olish uning dastlabki vazifasi bo'lsa ham, bu narsalarga uning vaqti ham, imkoni ham yo'q. Shoir she'rlari hisli, qizg'in va nafis bo'lgani kabi, ochiq va ma'lum bo'lgan bir maqsadga qarab yoziladi, to'la va to'kis natija beradi [7, 13].

"Temirchi" she'ridagi maqsad temirchining o'g'lining ta'lim ololmasligi emas, Turkiston o'lkasidagi xalqning yashash sharoiti. Shoir she'rning so'ngrog'ida "yig'i" deb sitata berishida o'z ahvoliga achingan xalq taqdiri ifodalangan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Yo'ldoshev N. Cho'lpon she'riyati poetikasi. — Toshkent, 2025.
2. Cho'lpon A. Go'zal Turkiston. — Toshkent, 2024.
3. Quronov D. Cho'lpon. — Toshkent, 2022.
4. Quronov D. Cho'lpon ijodi tanqid ko'zglasida. — Toshkent, 2022.
5. Cho'lpon. Uch jildlik asarlar. T. 1. — Toshkent, 1994.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. — Toshkent, 2013.
7. Sharafiddinov O. Istiqlol fidoyilari. — Toshkent, 1993.